

AGROSANOAT KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISHDA
XORIJIY TAJRIBA VA UNI QASHQADARYO VILOYATI
SHAROITIGA MOSLASHTIRISH YO'LLARI

Yaxshiboyev Barot Abdulhaqovich

Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada rivojlangan davlatlarda shakllangan agrosanoat klasterlari modeli, ularning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va innovatsion rivojlanish tajribasi tahlil qilinadi. Niderlandiya, AQSh, Xitoy, Janubiy Koreya va Turkiya tajribasi asosida klaster boshqaruvi, ilm-fan integratsiyasi va eksport yo'naltirilgan ishlab chiqarish mexanizmlari ochib beriladi hamda ularni Qashqadaryo viloyati sharoitida qo'llash bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: xorijiy tajriba, agroklastер, innovatsiya, eksport, integratsiya, agrotehnologiya, boshqaruv modeli.

Аннотация. В статье анализируется модель агропромышленных кластеров, сформированных в развитых странах, их организационно-экономические механизмы и опыт инновационного развития. На основе опыта Нидерландов, США, Китая, Южной Кореи и Турции раскрываются механизмы управления кластерами, научной интеграции и экспортно-ориентированного производства, а также разрабатываются научные предложения по их применению в условиях Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: зарубежный опыт, агрокластер, инновации, экспорт, интеграция, агротехнологии, модель управления.

Abstract. The article analyzes the model of agro-industrial clusters formed in developed countries, their organizational and economic mechanisms and experience of innovative development. Based on the experience of the Netherlands, the USA, China, South Korea and Turkey, cluster management, science integration and export-oriented production mechanisms are revealed and scientific proposals are developed for their application in the conditions of the Kashkadarya region.

Keywords: *foreign experience, agro-cluster, innovation, export, integration, agrotechnology, management model.*

Kirish. Agrosanoat klasterlari zamonaviy iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarining integratsiyalashgan rivojlanishini ta'minlovchi muhim tashkiliy-iqtisodiy model sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, klasterlashuv ishlab chiqarish zanjirining barcha bo'g'inlarini – xomashyo yetishtirishdan tortib, uni qayta ishlash, saqlash va tayyor mahsulotni bozorga chiqarishgacha bo'lgan jarayonlarni yagona tizimga birlashtirish orqali resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi, innovatsiyalarni joriy etishni tezlashtiradi hamda hududlarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shu bois, rivojlangan davlatlarda agrosanoat klasterlari agrar sohada barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda.

Asosiy qism. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, agrosanoat klasterlarining shakllanishi va hududiy tashkil etilishi, avvalo, tabiiy geografik omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Jumladan, Niderlandiya, AQSh, Braziliya va Xitoyda rivojlangan agrosanoat klasterlari unumdor tuproq, qulay agroiklim sharoiti hamda suv resurslarining yetarliligi asosida joylashtirilgan. Bu hududlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy asoslari chuqur tahlil qilinib, muayyan hududlar aniq mahsulot turlariga ixtisoslashtirilgan. Masalan, Niderlandiyada issiqxona xo'jaligi klasterlari dengiz iqlimi ta'sirida barqaror mikroiklimga ega hududlarda joylashgan bo'lsa, AQShning Kaliforniya shtatida meva-sabzavotchilik klasterlari irrigatsiya tizimlari rivojlangan vodiy hududlarida shakllangan. Bu holat agrosanoat klasterlarining hududiy joylashuvida tabiiy-resurs salohiyatining yetakchi rol o'ynashini yaqqol namoyon etadi.

Agrosanoat klasterlarining iqtisodiy geografik xususiyatlarini belgilovchi muhim omillardan biri transport-logistika infratuzilmasining rivojlanganlik darajasidir. Rivojlangan davlatlarda klasterlar, odatda, yirik iste'mol bozorlariga, portlarga, temir yo'l va avtomobil yo'llariga yaqin hududlarda joylashtiriladi. Masalan, Ispaniyada meva-sabzavotchilik klasterlari O'rta yer dengizi bo'yi



hududlarida tashkil etilib, eksport yo'nalishidagi logistika tizimi bilan uzviy bog'langan. Janubiy Koreyada esa agrosanoat klasterlari sanoat zonalari bilan integratsiyalashgan holda joylashtirilib, mahsulotni tezkor qayta ishlash va ichki bozorga yetkazib berish imkoniyatlari kengaytirilgan. Bunday hududiy tashkil etish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, yo'qotishlarni qisqartirish hamda tayyor mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Xorij tajribasida agrosanoat klasterlari hududiy ixtisoslashuv tamoyili asosida rivojlanadi. Ya'ni, muayyan hududlarda aniq mahsulot turi bo'yicha to'liq ishlab chiqarish zanjiri shakllantiriladi: xomashyo yetishtirish, uni qayta ishlash, saqlash, qadoqlash va realizatsiya qilish jarayonlari yagona hududiy tizimda amalga oshiriladi. Masalan, Fransiyada sut mahsulotlari klasterlari chorvachilikka ixtisoslashgan mintaqalarda tashkil etilgan bo'lib, yem-xashak yetishtirishdan tortib, tayyor mahsulotni eksport qilishgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oladi. Xitoyda esa choy, paxta va bog'dorchilik mahsulotlariga ixtisoslashgan hududiy klasterlar shakllanib, ularda ilmiy-tadqiqot muassasalari, logistika markazlari va eksportga yo'naltirilgan qayta ishlash korxonalari o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi. Bu jarayon hududiy mehnat taqsimotini chuqurlashtiradi va iqtisodiy makonning funksional tuzilishini takomillashtiradi.

Agrosanoat klasterlarining hududiy rivojlanishga ta'siri xorijiy tajribada yaqqol namoyon bo'ladi. Klasterlar shakllangan hududlarda ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan birga bandlik darajasi oshadi, infratuzilma rivojlanadi hamda aholi daromadlari barqarorlashadi. Masalan, Braziliyada soya va go'sht mahsulotlariga ixtisoslashgan klasterlar joylashgan hududlarda qishloq aholisining ijtimoiy-iqtisodiy faolligi kuchayib, xizmat ko'rsatish sohalari rivojlangan. Shuningdek, klasterlashuv jarayoni qishloq joylarda sanoatlashuvning kuchayishiga olib kelib, urbanizatsiya jarayonlarini muvozanatlashga xizmat qilgan. Shu tariqa, agrosanoat klasterlari hududiy iqtisodiy tizimning tarkibiy qismlarini bir-biri bilan bog'lab, hududlararo rivojlanish tafovutlarini qisqartirishga imkon yaratadi.

Xorijiy mamlakatlarda agrosanoat klasterlarining hududiy tashkil etilishi va iqtisodiy geografik xususiyatlari

Tahlil yo'nalishi	Xorijiy tajriba	Iqtisodiy geografik mazmuni	Qashqadaryo uchun ahamiyati
Joylashuv omillari	Qulay agroiklim va suv resurslariga yaqin hududlarda joylashadi	Tabiiy omillar ishlab chiqarish samaradorligini belgilaydi	Hududlarni agroiklim zonalari bo'yicha ixtisoslashtirish zarur
Transport-logistika	Bozorlar va portlarga yaqinlik ustuvor	Xarajatlar kamayadi, raqobatbardoshlik oshadi	Logistika markazlarini rivojlantirish talab etiladi
Hududiy ixtisoslashuv	Har bir hudud ma'lum mahsulotga ixtisoslashadi	Hududiy mehnat taqsimoti chuqurlashadi	Tumanlar kesimida klasterlashuvni kuchaytirish lozim
Ishlab chiqarish zanjiri	To'liq sikl: xomashyo – qayta ishlash – eksport	Hududiy ishlab chiqarish majmualari shakllanadi	Qo'shilgan qiymatni oshirish imkonini beradi
Innovatsiyalar	Raqamli texnologiyalar keng qo'llanadi	Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi yuzaga keladi	Zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish muhim
Bandlik va rivojlanish	Ish o'rinlari ko'payadi,	Hududiy iqtisodiy faollik oshadi	Qishloq hududlarini rivojlantirish



	infratuzilma rivojlanadi		mexanizmi bo'lib xizmat qiladi
--	-----------------------------	--	-----------------------------------

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy mamlakatlarda agrosanoat klasterlarining hududiy tashkil etilishi, avvalo, tabiiy-geografik omillar va transport-logistika infratuzilmasi bilan uzviy bog'liqdir. Klasterlarning qulay agroiklim sharoitiga ega, suv resurslari yetarli hamda yirik iste'mol bozorlariga yaqin hududlarda joylashtirilishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hududiy ixtisoslashuv tamoyiliga asoslangan klaster modeli hududiy mehnat taqsimotini chuqurlashtirib, ishlab chiqarish jarayonining to'liq zanjirini shakllantirish imkonini beradi. Bu holat agrosanoat majmualarining hududiy tuzilmasini takomillashtirib, ishlab chiqarish samaradorligining barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Mazkur tajriba iqtisodiy geografik nuqtayi nazardan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Klasterlar joylashgan hududlarda innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirib, bandlik darajasining oshishiga va infratuzilmaning rivojlanishiga olib keladi. Natijada, qishloq hududlarida yangi ish o'rinlari yaratiladi, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish shakllanadi hamda hududiy iqtisodiy faollik ortadi. Ushbu jihatlar Qashqadaryo viloyati sharoitida agrosanoat klasterlarini rivojlantirishda xorijiy tajribani hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda moslashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Qashqadaryo viloyatida agrosanoat klasterlarining shakllanishi hududning tabiiy-resurs salohiyati, agrar ixtisoslashuvi hamda ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan bevosita bog'liq holda rivojlanib bormoqda. Viloyat hududida paxta-to'qimachilik, meva-sabzavotchilik va chorvachilik yo'nalishlarida tashkil etilgan klasterlar, asosan, sug'oriladigan yerlar ulushi yuqori bo'lgan Qarshi, Koson, Kasbi, Chiroqchi va Muborak tumanlarida joylashgan. Bunda klasterlarning hududiy joylashuvi qishloq xo'jaligi xomashyo bazasiga yaqinlik, transport tarmoqlari bilan bog'liqlik hamda qayta ishlash korxonalarining mavjudligi kabi

iqtisodiy-geografik omillar ta'sirida shakllanmoqda. Natijada, viloyat hududida ishlab chiqarish jarayonlarining hududiy konsentratsiyasi kuchayib, ayrim tumanlar muayyan mahsulot turlariga ixtisoslashib bormoqda.

Xorij tajribasini Qashqadaryo viloyati sharoitida tatbiq etish jarayoni avvalo hududiy sharoitlarni chuqur tahlil qilish va klasterlarni agroiklim zonalari, tuproq salohiyati hamda suv resurslariga moslashtirishdan boshlanishi lozim. Niderlandiya, AQSh va Turkiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, klasterlar hududiy ixtisoslashuv tamoyili asosida shakllantirilganda ishlab chiqarish samaradorligi va qo'shilgan qiymat zanjiri kuchayadi. Shu jihatdan, Qashqadaryo viloyatida paxta-to'qimachilik, meva-sabzavotchilik va chorvachilik yo'nalishidagi hududlarni aniq zonalarga ajratish, sug'oriladigan yerlar va suv resurslariga yaqin hududlarda ishlab chiqarish majmualarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududiy rejalashtirish va logistika infratuzilmasini rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim mexanizm sifatida xizmat qiladi. Xorijiy mamlakatlarda klasterlar transport-markazlar, portlar va temir yo'l tarmoqlari bilan bog'langan hududlarda joylashgan bo'lib, bu mahsulotni tez va arzon yetkazib berish imkonini yaratadi. Qashqadaryo sharoitida ham logistika markazlari, sovitkich omborlar, avtomobil va temir yo'l tarmoqlari orqali klasterlararo mahsulot oqimini tashkil etish, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish zonalarini shakllantirish orqali hududiy iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish mumkin. Shu bilan birga, transport va infratuzilma integratsiyasi viloyatning chekka tumanlaridagi iqtisodiy faollikni ham rag'batlantiradi.

Xulosa. Qashqadaryo viloyatida agrosanoat klasterlarini rivojlantirishda xorijiy davlatlarning tajribasini chuqur o'rganish va hududiy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Xorijiy mamlakatlarda klasterlarning tabiiy-resurs salohiyati, hududiy ixtisoslashuv va transport-logistika tarmoqlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanishi ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va hududiy raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini beradi. Shu asosda Qashqadaryo viloyatida paxta-to'qimachilik, meva-sabzavotchilik va chorvachilik yo'nalishida hududiy



klasterlarni shakllantirish, ishlab chiqarish zanjirini to'liq va barqaror qilish hamda logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali viloyatning iqtisodiy geografik salohiyatini maksimal darajada amalga oshirish mumkin.

Bundan tashqari, klasterlar hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun muhim vosita hisoblanadi. Bandlik darajasini oshirish, ish o'rinlarini yaratish, qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratish orqali viloyatning iqtisodiy faolligi barqarorlashadi. Shu jihatlar Qashqadaryo viloyati sharoitida xorij tajribasini ilmiy asosda tatbiq etish va klasterlarni hududiy-geografik omillarni hisobga olgan holda rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi hamda viloyatning agroiqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Porter Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review. – Cambridge, 1998. – Vol. 76, № 6. – P. 77.
2. Щукина Л.В. Агрокластеры как инструмент обеспечения устойчивого инновационного развития сельского хозяйства региона // Вестник ГГТУ им. П.О. Сухого: научно - практический журнал. - 2014. - № 3. - С.97-10
3. Е.Куценко, С.Артемов и др. Агропромышленные кластеры: зарубежный опыт и российские практики. Российская кластерная обсерватория ИСИЭЗ ВШЭ. Москва-2017.
4. G.Lindqvist, Ch.Ketels, Ö.Sölvell. The Cluster Initiative Greenbook 2.0. Ivory Tower Publishers, Stockholm 2013. P. 66.
5. Строев П.В., Пивоварова О.В. Агрокластер как эффективный механизм развития растениеводства на региональном уровне. Аграрная наука. 2026; 402 (01): 128–143. <https://doi.org/10.32634/0869-8155-2026-402-01-128-143>



6. Galimova F.R. Зарубежный опыт управления агрокластерами/ Электронное научно-практическое периодическое издание. «Экономика и сотсиум». №11(113)-1 2023

7. Косинов Д.В., Атамась Е.В. Зарубежный опыт формирования экономических кластеров. Региональные проблемы преобразования экономики, №1, 2023

8. Юсупов М. С. Развитие агрокластеров в цепочке производства и переработки сельскохозяйственной продукции. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. Date: 19th December, 2023

9. Қодиров А. М., Ахмедиева А. Т Агрокластерлар ривожланишининг хориж тажрибаси ва уни Ўзбекистон шароитига мослаштириш имкониятлари. Иқтисодиёт ва таълим / 2020 № 3

10. Yaxshiboyev B.A. Agroklastarlarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasi / Zamonaviy geografiyada innovatsion g'oyalar: Raqamli iqtisodiyot va gis texnologiyalar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Qarshi I-qism 2024 yil 25-26-oktabr. B. 361-364.